



Yulduz Tursunova

Fanlar akademiyasi Tarix instituti
kichik ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

e-mail: yulduztursunova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15487036>

XX YUZYILLIKNING 20 – 30-YILLARIDAGI MAORIF XODIMLARINING QATAG'ONI

Annotatsiya: Mazkur maqolada sovet hukumati tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqqan maorif xodimlarining qatag'on qilinishi, sovetcha ta'lim muassasalari tizimini yaratish amaliyoti orqali milliy ziyolilarga qarshi kurash, "yot unsur" deb hisoblab ta'lim muassasalaridan chetlashtirish, ularning shogirdlari va oila a'zolarining tazyiqqa uchrashi kabi qator masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ziyolilar, "Milliy ittihad", "Milliy istiqlol", "Nashri maorif", qatag'on, maktab, jadid.

Ma'muriy-buyruqbozlik siyosati ostida shakllangan sovet ta'lim tizimining bosh maqsadi itoatkor sovet kishilarini tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Ta'lim muassasalarida milliylikdan ancha yiroq bo'lgan, mahalliy xalq urf-odatlariga, an'analari, qadriyatlariga mos kelmaydigan tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Fan, maorif va madaniyat "umumpartiya ishlarining" ajralmas qismiga aylantirildi. Ta'lim siyosati bolsheviklar partiyasi qat'iy nazorati ostida yagona g'oyaviy dastur asosida shakllandi. Sovet kuch ishlatish organi – Birlashgan davlat

siyosiy boshqarmasi (OGPU)[1] tomonidan maorif xodimlarning har qadami nazorat ostiga olindi. Sovet hukumati ziyolilar har qanday targʻibot, tashviqot ishlarining boshida turuvchi, yoshlar ongida ozodlik, erkinlik, vatanparvarlik kabi gʻoyalarni, shuningdek, mustabid tuzumning asl mohiyatini asta-sekin singdirib borishidan qattiq qoʻrqdilar va ularni ketma-ket dalil-isbotlarsiz yoʻq qilishga tushdilar.

Sovet hukumatining maorif sohasida olib borgan siyosati, sovetcha taʼlim muassasalar tizimini yaratish amaliyoti milliy ziyolilarga qarshi kurash bilan bogʻliq ravishda kechdi. Bolsheviklar ochgan maktab, oʻrta va oliy taʼlim muassasalariga yoshlarni jalb etish, milliy urf-odat va tarbiyadan uzoqlashgan, sinfiy tarbiyalangan avlodni shakllantirishda amaldagi diniy va jadid maktablaridagi ustozlar jiddiy toʻsiq boʻlgan edi. Shu sabab, maktablarda oʻqitilgan diniy fanlarga taqiq qoʻyish, ularni soliqqa tortish orqali yopish, ustozlarni taʼqibga olish ishlari avj oldi. Tadqiqot davomida oʻrganilgan arxiv manbalari va adabiyotlar asosida maorif xodimlarining qatagʻon qilinishi 1920- yillardan boshlab amalga oshirilganligi ochiqdanadi. Sovet hokimiyatining milliylashtirish (natsionalizatsiya) va xususiy mulkka chek qoʻyilishi (munitsipalizatsiya) siyosati oqibatida ulamolar sinfiga kiritilgan bir qator muallimlarning mol-mulki musodara qilinib, oilalari bilan nochor ahvolga tushirilgan.

Maorif tizimida olib borilgan sovet qatagʻon siyosati uch yoʻnalishda olib borildi: 1) aksilinqilobchilarni aniqlash va jazolash; 2) oila aʼzolarini jazoga tortish; 3) qatagʻonga uchragan shaxslarning ustoz yoki oʻquvchilarini qatagʻon qilinishi.

Taʼlim xodimlariga nisbatan qoʻllanilgan taʼqib 1920-yil boshlaridagi tergovlar va qamoqqa tashlashlardan boshlanib, 1929-yillardan boshlab avjiga chiqdi. Keyinchalik bu siyosat kolxozlashtirish tadbirlarini qoʻllab-quvvatlamagan, sinfiy jihatdan sovet davlati manfaatlariga toʻgʻri kelmaydigan shaxslarni aniqlash va surgun qilish bilan davom etdi. Natijada minglab maorif xodimlari qatagʻon qilindi.

Masalan, Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasining (OGPU) Oʻrta Osiyodagi muxtor vakilligi 1930-yil 30-iyunda 4 viloyat boʻyicha bergan maʼlumotiga koʻra

1930-yilning aprel-may oylarida Toshkentdan 92 ta, Samarqanddan 24 ta, Buxorodan 20 ta, Andijondan 7 ta maorif xodimlari hibsga olingan[2,258].

Izlanishlar davomida tadqiqotchi tomonidan ilgari ma'lum bo'lmagan yangi manbalar asosida 1929 – 1941-yillarda O'zbekiston SSR maorifi sohasida faoliyat yuritgan jami 391 maorif xodimlari, aspirant, talaba va o'quvchilarni qo'shib hisoblaganda esa 420 kishi jinoyatchi sifatida ayblanib, qatag'on qilingani aniqlandi.

Mazkur shaxslarning ijtimoiy mavqei tahlil etilganda, ulardan 78 nafari Maorif xalq komissarligi boshqaruvi xodimlari, 9 nafari bolalar uyi, internat va bolalar bog'chalari rahbarlari, 1 nafari tarbiyachi, 21 nafari maktab rahbarlari, 168 nafari o'qituvchi, 18 nafari o'rta maxsus o'quv yurtlari rahbarlari, 18 nafari o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchisi, 22 nafari oliy o'quv yurti rahbarlaridan, 53 nafari professor o'qituvchilar, va 3 nafari yo'riqchi va 29 nafari tahsil olayotgan aspirant, talaba va o'quvchilar bo'lganligi ochiqdandi.

Ushbu raqamlar hududlar kesimida taqsimlanganda Toshkentdan – 89 kishi, Samarqanddan – 42 kishi, Qoraqalpog'iston ASSRdan – 40 kishi, Andijondan – 31 kishi, Buxorodan – 30 kishi, Qo'qondan– 24 kishi, Namangandan – 23 kishi, Qashqadaryodan – 19 kishi, Xorazmdan – 14 kishi, Jizzaxdan- 6 kishi, Surxondaryodan – 5 kishi, Farg'onadan – 5 kishi, Sirdaryodan – 3 kishi va boshqa joylardan kelib ishlagan maorif xodimlaridan – 57 kishi va hududi aniq bo'lmaganlardan 3 nafar maorif xodimlari qatag'on qilingani aniqlandi. Umumiy hisobda, respublikaning har bir hududida qatag'on siyosatidan jabr ko'rgan oilalar bo'lgan.

Yuqorida qayd etganimizdek, sovet qatag'oniga nafaqat "aybdor" deb topilganlar, balki ularning oila a'zolari ham uchragan. Erlari "xalq dushmani" sifatida ayblangan o'nlab o'qituvchi-ayollar ham jazolangan. Jumladan, Valentina Vasilyeva, Halima Qodirova, Gulsum Rahimova-Ashrafiy, Zaynab Hoshimova, Tursunxon Ramzieva, Muqaddam Nazirqulova, Amina Vohidova, Basya Matqulovalar[3,91-99,207-211] shular jumlasidandir. SSSR Ichki ishlar komissarining 1937-yil 15-avgustdagi №00486-buyrug'ida 1936-yil 1-avgustdan Harbiy hay'at va harbiy tribunal tomonidan

“xalq dushmani”, “o‘ng trotskiy ayg‘oqchi-qo‘poruvchi” tashkilot a‘zosi sifatida aybdor deb topilganlarning qonuniy yoki fuqarolik nikohidagi xotinlarini qatag‘on qilish bo‘yicha ko‘rsatma berilgan. Ayollarga eng kamida 5-yildan 8-yilgacha qamoq jazosi belgilangan. Emizikli, kasalmand, voyaga yetmagan bolalari bo‘lishiga qaramasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri surgun qilish jazosi tayinlangan. Buyruqqa ko‘ra, 3 yoshga to‘lmagan go‘daklar Sog‘liqni saqlash komissarligi qoshidagi yetimxonalarga, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa, qabul taqsimlov muassasalariga, 15 yoshdan oshganlar ijtimoiy xavfli deb hisoblanib, ular uchun maxsus ajratilgan joylarga yuborilgan[4].

Natijada minglab oilalar parokanda bo‘lib ketdi. Bolalar o‘limi ko‘paydi. Stalin qatag‘oni oqibatida maktab yoshidagi bolalarning 5 foizi maktabga jalb etilmadi, 6 foiz bola maktabni tashlab ketgan va 100 mingdan ziyod bola maktabga qatnamay qo‘ydi. “xalq dushmani” deb nom olgan o‘qituvchilarning farzandlari turli bahonalar bilan maktablardan haydaldi.

Qatag‘on siyosati jazolangan shaxslarning ustozlari yoki o‘quvchilarini ham ayamadi. Aniqlangan manbalarda, sovet davlatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olonlarda qatnashgan kishilarning ustozlari ularga noto‘g‘ri saboq berganlikda yoki ular haqidagi ma‘lumotlarni yashirishda ayblangan. Masalan, 1925-yilda Samarqanddagi maktabi yopib yuborilgan va imtiyozli nafaqaga chiqqan Abduqodir Shakuriy o‘quvchisi qozi Haydarbek Abdusaidov boshchiligidagi 10 kishidan iborat guruh bilan birgalikda qamoqqa olinadi va tergov jarayonida “bosmachi”lik harakatinining yetakchisi bo‘lgan, sovet ta‘qibidan Afg‘onistonga qochib o‘tgan sobiq o‘quvchisi Hamroqul Rajabov to‘g‘risida ma‘lumot bermagani uchun jazolanadi.

1937-yil 5-avgust kuni 66-modda 1-bandiga ko‘ra, muallim Abduqodir Shakuriy uyida xizmatkor ishlatgan, «Milliy ittihad», «Nashri Maorif» guruhi a‘zosi, aksilinqilobiy guruhga yordam bergan, o‘quvchilarga millatchilik g‘oyalarini singdirganlikda aybdor deb topiladi. Abduqodir Shakuriy 10-yil ozodlikdan mahrum etiladi va jazoni o‘tash davrida vafot etadi.

O'quvchi-shogirdlar esa, ustozlari g'oyasi bilan zaharlangan va kelgusida ularning ishlarini davom ettiruvchilar sifatida ta'qibga uchragan. Xususan, Usmon Nosir bilan birga uning 15 yoshli o'quvchisi Shuhrat ham hisbga olinadi va 21 oy qiynoqqa solinadi. Uning birgina aybi Usmon Nosirning shogirdi bo'lganligida edi[5,25]. Bunday asossiz qamalanganlar juda ko'pchilikni tashkil etgan.

Sovet davlati bu bilan kifoyalanib qolmay, "xalq dushmani" deb hisoblangan ziyolilarning ijodiy, ilmiy va pedagogik meroslarini yo'qotish choralarini ko'rdi, hatto ularning asarlarini o'qigan yoki saqlagan kishilar ham qattiq jazoga tortildi[6,4].

Milliy yetakchilar orasida nizo urug'larini tashlab, ulamolarni yosh ma'rifatparvarlarga qarshi qo'yishga harakat qildi. Buning uchun ta'lim tizimida til-imlo islohoti tadbirini tashkil etdi. Bolsheviklar turkiy xalqlarning arab alifbosi o'rniga lotin harflarini joriy etish bo'yicha harakatlaridan unumli foydalandi.

Bu islohot, eng avvalo, o'lka ijtimoiy hayotining ildizi hisoblangan dinga zarba berishga qaratilgan edi. Shu sababli, arab alifbosidan voz kechib, asrlar davomida yaratilgan merosni yo'qotishdan xavotirlangan yoshi katta jadidlar va yosh turklar g'oyalariga ergashib, lotinlashtirish ta'lim olish va yevropacha rivojlanish yo'liga o'tishni osonlashtiradi deb hisoblagan taraqqiyparvarlar o'rtasida bo'linish yuzaga keldi. Natijada, uch xil qarashga ega bo'lgan guruhlar shakllandi. Birinchisi, Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligida Murodxo'ja domla, Shorasul Zunnun, Shohid Eson, Ashurali Zohiriylardan iborat millatparvarlar alifboning o'zgarishini qo'llab-quvvatlamadi. Ikkinchisi, Fitrat va uning shogirdlari Abdulqayum Ramazoniy, Mahmud Hodyiev, Mannon Ramzi, Otajon Hoshimov, Mirmullo Shermuhammedov, Sanjar Siddiqov, Mannon Uyg'ur boshchiligidagi lotin alifbosini yoqlab chiqqanlar. Uchinchisi, sovet hokimiyati tomoniga o'tib, o'z ustozlari yo'lidan voz kechgan yosh o'qituvchi kommunistlar – Sotti Husayin, Madhiddin Muhammadiy, Abdulla Mustaqayev, Beglar Junay, Buyuk Karimov, Obid Hamidov, Muhammadjon Sobirov[7] va boshqalar. Yuqoridagi insonlarning ba'zilar sovet hukumati yuritgan

siyosatga qarshi chiqdilar va tazyiqqa uchrab, qatag'on qilindilar. Ba'zilar esa sovet hukumatiga sodiq bo'lsalar-da qatag'on qilichidan omon qolmadilar.

O'zbekiston SSR maorif xodimlarining dastlabki yirik qatag'oni 1929-yilda Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligidagi jadidlarning "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolarini hibsga olish bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur jinoiy ish bo'yicha 87 kishi qamoqqa olingan. 1931-yil 25-apreldagi BDSB qaroriga ko'ra, 15 kishi otuvga, 31 kishi o'n yilga, 19 kishi besh yilga, 14 kishi uch yilga qamoqqa hukm qilinadi. Ulardan bir kishi bir yilga Omskka surgun qilinadi, 3 kishi yurtidan quviladi[8, 235].

1927-yil noyabr plenumida: "firqaning hozirgi tarkibi qattiq tekshirilsin va ijtimoiy yot va buzilgan unsurlardan qat'iyyan tozalansin"[9] deb qaror qilinadi. 1929-yil partiya safini tozalash ishlari avjiga chiqdi. Oqibatda 100 ming kishi partiya safidan chiqarildi[10, 33], ma'lumki, partiya a'zolarining ko'pini ziyolilar tashkil etgan. Ijtimoiy kelib chiqishi o'ziga to'q oiladan bo'lganlar partiyadan o'chirilib, ishdan haydaldi.

O'zbekiston SSR Kompartiyasining IV qurultoyida (1929-yil 17-fevral – 2-mart) va yuzlab ziyolilar "millatchilik"da ayblanadi[11, 1] va ular ustidan nazorat kuchaytiriladi. Masalan, Mahmud Hodiyeu ham "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi deb ayblangan va unga dastlabki millatchi tamg'asi bosildi[12, 688]. Ammo yetarli dalillar bo'lmagani uchun vaqtinchalik ozodlikda qolgan.

1930-yil 15-avgustdan 1-oktyabrgacha sud, adliya, xalq maorif organlarida favqulodda tozalov o'tkazish belgilanadi[13]. Shundan so'ng "Xalq maorifi jinoiy ishi" ochilib, Mahmud Hodiyeu va uning tarafdorlari ta'qibga uchraydi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, bu ishning ochilishiga 1930-yil 21-iyunda Davlat xavfsizlik boshqarmasi ayg'oqchisi, "Qosimovchilik ishida"[14] asosiy guvoh bo'lgan, bundan tashqari "G'ayratlilar" uyushmasi to'g'risida axborot bergan Obid Saidovning zaharlanishi sabab bo'lgan. Oldiniga gumonlanuvchi sifatida qo'lga olingan marhumning ukasi Nosir Saidov o'sha vaqtda Andijon viloyati xalq maorif bo'limi mudiri lavozimida ishlagan. Tergov jarayonida Nosir Saidovga maorif

rahbarlaridan akasini zaharlab o'ldirish topshirig'ini olgani to'g'risida ayblovlarni qo'yilgan.

Shundan so'ng Mannon Ramzi va Mahmud Hodiyevalar bilan birga Maorif xalq komissarligi tizimidagi 20 kishidan (yangi ma'lumotlarga ko'ra 30 kishi) iborat guruh qamoqqa olinadi. Ularning ustidan "Xalq maorifi jinoiy ishi" ochilib, qo'shimcha ravishda Samarqandda 1929 – 1930-yillarda "G'ayratlilar" nomli yashirin aksilinqilobiy tashkilot tuzgan, ta'lim muassasalariga "yot unsurlar"ni to'g'ridan to'g'ri qabul qilgan deb ayb qo'yiladi[15, 82].

"Xalq maorifi jinoiy ishi"da ayblanganlar Moskvaga olib ketilib, uch yil Butirka qamoqxonasida[16] saqlanib qilingan. Saqlanish paytida maorif xodimlaridan ikki nafari – Abdurahmon G'oyibov va Jabbor Narziqulov qiynoqlarga chiday olmay jon bergan[17, 19].

Uzoq kutilgan sud atigi 15 daqiqa ichida jinoiy ishni ko'rib chiqib, qaror qabul qiladi. 1933-yil 31-martda Mannon Ramziy, Nosir Saidov, Sobir Qodirov, Qayumxo'ja Aliyev va Qamchinbek (Abdulla Gaynulin) qatori Mahmud Hodiyevalar (Botu) ham o'lim jazosiga hukm etiladi[18, 100]. Ammo keyinroq mazkur hukm 10 yillik qamoq jazosi bilan almashtiriladi[19, 450]. Botu Soloves orollaridagi[20] konslagerga yuboriladi. U yerda iqtisodchi bo'lib ishlaydi. U umrining yetti yilini Toshkent va Moskva hibsonalari hamda Soloves orollarida o'tkazadi[21, 26].

Mannon Ramzi va Mahmud Hodiyevalar boshchiligidagi O'zbekiston Maorif xalq komissarligi xodimlari ta'lim muassasalarida o'zbek o'quvchilari sonini ko'paytirishni va boshqaruvga faqat o'zbek millatiga mansub kishilar o'tirishini maqsad qilganlar. O'zbeklarning ta'lim muassasalariga jalb etilishi sovet hukumati uchun fojia edi.

Xulosa qilib aytganda, bolsheviklarning ta'lim berishdagi sinfiy yondashuvi, o'quv dasturi, darslarning mazmun mohiyatidan norozi bo'lgan va uni ochiq tanqid qilgan maorif xodimlari ta'limdan chetlashtirilib, sinfiy dushman sifatida qamoq va o'lim jazosiga mahkum etilganlar.

Sovet hokimiyati olib borgan bunday siyosat natijasida, uzoq yillar milliy mustaqillik g'oyalari singdirilgan darslar, ozodlik uchun kurashgan qahramonlar mavzusi o'qitilmadi. Buning o'rniga yosh avlodga zulmatdagi hayotdan "yorug'" kunlarga olib chiqqan bolsheviklar partiyasi va rahnamolariga sig'inish, kommunistik g'oyani ulug'lash va shukronalik hissi singdirildi. Oqibatda ajdodlari qotili bo'lgan davlatga o'zi bilmagan holda xizmat qilgan sag'ir boladek ergashuvchilar va aksincha sovet davlatidan norozi bo'lgan, lekin nafratini ichiga yutib, qo'rquv ostida sukut saqlashga mahkum etilgan avlod tarbiyalandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU)- keyingi o'rinlarda BDSB.
2. Хошимов С. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1936 йиллар). –Тошкент: Akademnashr, 2018.
3. Valentina Vasilyeva – turmush o'rtog'i Mahmud Hodiyev (Botu) - (batafsil qarang, Каримов Н. Қор қўйнида лолалар. – Тошкент: Академия, 2001), Halima Qodirova – turmush o'rtog'i maorif xodimi Qodirov Sobir, Gulsum Raximova-Ashrafiy – turmush o'rtog'i Haydar Ashrafiy- (batafsil qarang, Каримов Н. Қор қўйнида лолалар. – Тошкент: Академия, 2001.), Zaynab Hoshimova turmush o'rtog'i Otajon Hoshimov (batafsil qarang, Каримов Н. Қор қўйнида лолалар. – Тошкент: Академия, 2001 й.), Tursunxon Ramziyeva – turmush o'rtog'i Mannon Ramzi, Muqaddam Nazirqulova – turmush o'rtog'i Abdujabbor Nazirqulov, Amina Vohidova– turmush o'rtog'i Majid Vohidov, Basya Matqulova– turmush o'rtog'i Sulton Matqul va h.k
4. Демография сталинской эпохи
<http://www.demoscope.ru/weekly/2003/0103/tema> 02.
5. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар, ҳужжат ва материаллар, хотиралар. 4-китоб. –Тошкент: Ғ.Ғулом, 2013.

6. Жабрдийда ёзувчилар адабий мероси мустақиллик хизматида. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 2013.
7. Sotti Husayn- Til va adabiyot ilmiy-tekshirish instituti direktori, Madhiddin Muhammadiy- talaba, Abdulla Mustaqaeв – Qo‘qon o‘qituvchilar seminariyasida ishlagan; Beglar Junay- Samarqanddagi ilmiy-tadqiqot instituti xodimi; Buyuk Karimov-Til va adabiyot institutida ishlagan; Obid Hamidov- Samarqanddagi pedagogika texnikumining o‘quv ishlari mudiri; Muhammadjon Sobirov- O‘zDU assistenti.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
9. Қизил Ўзбекистон // 1929 йил 27 март.
10. Сирожиддин Аҳмад, Қизил мустамлака: эълон қилинмаган уруш (1929-1950). – Тошкент: Info Capital Books, 2022.
11. О‘зМА, R-2555-fond, 1-ro‘uxat, 33-yig‘majild, 1-varaq.
12. Судебный отчет. Материалы Военной коллегии Верховного суда СССР. – Москва, 1997.
13. Қизил Ўзбекистон // 1930 йил 24 июл.
14. “Qosimovchilik ishi” — Toshkent viloyati sudi raisi (1925-1926), O‘zbekiston SSR Oliy sudi raisi (1926-1929) lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan Sa‘dulla Rashidovich Qosimov nomi bilan bog‘liq jinoiy ish.
15. Хошимов С. Наркомпрос иши билан боғлиқ янги маълумотлар // Андижон Давлат университети. “Илмий хабарномаси”. – 2012 йил. – № 1.
16. Moskva shahri, Tver tumani, Novoslobodskiy ko‘chasida joylashgan qamoqxona. Hozirda eng yirik tergov izolyatori sifatida faoliyat yuritadi.
17. Боту. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2004.
18. Тарихнинг номаълум саҳифалари (хужжат ва материаллар).– Тошкент: Ғ. Ғулом, 1-китоб. 2009.

19. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917 – 1939 йиллар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.

20. Soloves oroli - Shimoliy Muz okeani Soloves arxipelagidagi eng katta orol. Ma'muriy joylashuvi jihatidan Rossiya Federatsiyasi Arxangelsk viloyati Primorsk tumanidagi Soloves qishlog'iga kiradi. 1920-yilda bu yerda SSSRdagi birinchi konslager tashkil etilgan.

21. Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. – Тошкент: Маънавият, 2000.

РЕПРЕССИИ РАБОТНИКОВ ОБРАЗОВАНИЯ В 20-30 ГОДЫ XX ВЕКА

Аннотация: В статье анализируется ряд вопросов, в том числе репрессии в отношении работников образования, выступавших против колониальной политики советского правительства, борьба с национальной интеллигенцией в процессе чистки советской системы образования, изгнание их из учебных заведений как «чуждых элементов», притеснение их учеников и членов их семей.

Ключевые слова: образование, интеллигенция, “Миллий иттиҳод”, “Миллий истиқлол”, “Нашри Маориғ”, репрессии, школа, жадид.

REPRESSION OF EDUCATION WORKERS IN THE 20-30 S OF THE 20TH CENTURY

Annotation: The article analyzes a number of issues, including the repression of educators who opposed the colonial policies of the Soviet government, the fight against the national intelligentsia in the process of purging the Soviet education system, their expulsion from educational institutions as “alien elements,” and the oppression of their students and their families.

Key words: education, intelligentsia, “Milliy ittihad”, “Milliy istiqloq”, “Nashri maorif”, repression, school, jadid.